

YOSHLAR TILIDA SLENG VA UNING ADABIY TILGA TA'SIRI

Safarova Mashxura Abdiraim qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti

yo'nalishi 1-bosqich talabasi

E-mail: safarovamashxura42@gmail.com

Tel: +998 97 075 07 12

Annotasiya: Ushbu maqola zamonaviy o'zbek tilshunosligining eng dinamik qatlami - yoshlar slengining tabiati va uning milliy adabiy til bilan o'zaro murakkab aloqalarini badiiy-tahliliy nuqtai nazardan tadqiq etadi. Slenglar shunchaki nutqiy nuqson emas, balki axborot asridagi ijtimoiy-psixologik ehtiyoj va tilning o'z-o'zini yangilashga bo'lgan intilishi sifatida talqin qiladi. Maqolada ingliz tilidan kirib kelayotgan o'zlashmalar hamda ko'cha jargonlarning adabiy til me'yorlari bilan to'qnashuvi, bu jarayonlarning adabiy til me'yorlari bilan to'qnashuvi bu jarayonning nutqiy estetikaga ta'siri atroflicha mushohada qilinadi. Tadqiqotda yoshlar nutqidagi emotsional bo'yoqdorlik, qisqalik va obrazlilikka intilish tamoyillari tahlil qilinib, neologizmlarning semantik maydoni yoritiladi. Mazkur ish ona tilimizning sofliğini saqlash va shu bilan birga uning taraqqiyotiga to'sqinlik qilmaslik borasidagi muhim xulosalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Sleng, adabiy til me'yori, yoshlar nutqi, til, stilistik me'yor, ijtimoiy tarmoqlar, xorijiy so'zlar, neologizmlar, lingvistik jarayon.

O'zbek milliy adabiy tili garchi umumxalq tilidan o'sib chiqqan bo'lsa ham, umuman, xalq tilidan ba'zi jihatlari bilan farq qiladi. Chunki umumxalq tili o'zbek tilida uchraydigan barcha elementlarni o'z ichiga oladi va ishlanmagan shaklda bo'ladi. Adabiy til esa undan o'zbek millati uchun tushunarli bo'lgan va foydalanishda qulay deb topilgan variantlarni tanlab oladi hamda ularni millat vakillari uchun me'yor sifatida tavsiya etadi. Sleng ("slang" - ingliz tilidan olingan bo'lib jargon, oddiy, og'zaki leksikaga xos so'zlar), umumiy sleng, maxsus sleng

(jargon va argon maxsus soʻzlar) hamda vulgarizm (qoʻpol soʻzlar) haqida soʻzdir. Har bir tildagi uslub turlari uchun umumiy boʻlgan shu tilning umumiy lugʻat fondi, shakllar va sintaktik qurilmalar, erkin va turgʻun birikmalar boʻladi. Bu esa uslub turlarining hammasini bir milliy adabiy tilga birlashtiradi. Soʻzlashuv nutqining dolzarb xarakterdagi mazmunini shakllantirish uchun ushbu uslubga xos fonetik, leksik, grammatik normalardan oʻrinli foydalanish lozim boʻladi. Adabiy tilning stilistik meʼyori til birliklarining nutqda sharoit, koʻzda tutilgan maqsaddan kelib chiqib eng maʼqulini qoʻllash zaruratidan paydo boʻladi. Bu uslublarning har biriga xoslangan grammatik shakllar, soʻz, soʻz birikmasi, gap va intonatsion vositalar mavjud. Ana shu xoslanish oʻzbek adabiy tili uslubiy meʼyorlarining asosidir. Sleng - soʻzlashuv nutqi dunyo tillarining hammasiga xos hodisadir. Har qanday til jamiyatga aloqador va jamiyatdan tashqarida oʻziga, alohida rivojlana olmaydi. Til, avvalambor, jamiyatimiz odamlarning oʻzaro muloqot vositasidir, shu sababli jamiyat odamlar til leksikasining shakllanishiga bevosita aloqadordir. Oxirgi 10 yil ichida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish shu darajada oshdiki, insonlar hayotlarini Instagram, TikTok kabilarsiz tasavvur qila olmaydigan boʻlishdi. Afsuski, shunga oʻxshash platformalardan haddan ziyod foydalanish yoshlar nutqida sleng va xorijiy soʻzlarning keng qoʻllanilishi oʻz ona tilimizning imkoniyatlarini, tilimizning ifoda vositalarini toʻlaligicha namoyon qilishi uchun asosiy toʻsiq boʻlmoqda. Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan nutq meʼyorlarining buzilishi, ayniqsa yoshlar muloqotida koʻp uchrashi til madaniyati va til estetikasiga katta xavf tugʻdirmoqda. Axborot texnologiyalari asrida yoshlar nutqida xorijiy soʻzlar va slenglarning keng qoʻllanilishi kuzatilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri ijtimoiy tarmoqlardir. Shuni eslatib oʻtish joizki, tilga xorijiy soʻzlarning kirib kelishi tabiiy holdir, lekin xorijiy soʻzlarning tilimizda ekvivalenti boʻla turib, xorijiy soʻzlardan foydalanish tilimizga tahdid hisoblanadi. Hozir Instagram tarmogʻida ommalashayotgan begona soʻzlarni tahlil qiladigan boʻlsak, eng koʻp qoʻllaniladiganlardan biri "trend" - ommalashgan narsa; keyingisi, trendning bir qismi boʻlgan "top" - juda mashhur; "comfort zona" - qulay muhit; "prikol" - yumor; "shok" - hayratlanarli holat;

"story" - Instagram yoki Telegramda hikoya joylash; "content" - videorolik; videoga "like bosish"- yoqtirish; "heyt qilish" - tanqid qilish; odamlar videoga "comment qoldirishadi", ya'ni izoh yozishadi; "follower"- obunachi; boshqa blogerlar bu videoni "repost" qilishadi - qayta ulashishadi. Sleng - bu rasmiy bo'lmagan ko'proq yoshlar orasida ishlatiladigan emotsional so'zlar bo'lib, adabiy til me'yorlariga to'g'ri kelmaydi. Adabiy til nima? Adabiy til biror millatning tarixiy jihatdan shakllangan umumxalq tiliga asoslanadi. Adabiy tilning o'z grammatikasi va leksikasi mavjud. Bular ham o'z adabiy normasiga ega. Adabiy til milliy tilning asosida shakllanadi. Milliy tilning og'zaki va yozma shakllari unda so'zlovchi xalq uchun tushunarli va umumiy bo'lgan mezonlarga egadir. Shu sababli, u davlat tili yoki rasmiy til sifatida qabul qilinadi. Masalan, "bomba" slengi - juda ajoyib; "motivi yo'q" - xohishi yo'q; "vibe bermayapti" - didiga mos emas, yoqmayapti. Bunday so'zlarning yoshlar orasida keng qo'llanilayotgani nutq madaniyatining buzilishi va tilimizga tahdid hamdir. Agar bunga befarqlik bilan qaralsa, leksik degradatsiyaga olib kelishi ehtimoldan holi emas. Yoshlar slenglardan foydalanib ilmiy inson sifatida ko'rinishga intilishadi, ammo bu nutqda adabiy va estetik me'yorlarni buzadi, milliy tilning sifatini pasaytiradi. Ingliz tilidagi videolar va global kontentning keng ommalashuvi tilimizga begona so'zlarning kirib kelishini kuchaytirmoqda. Shu bilan birga tilni to'g'ri ishlatish printsipli shundan iboratki, ingliz tilida gapirganda inglizcha, o'zbek tilida so'zlashganda esa sof o'zbekcha nutq qo'llanilishi lozim. Bu yondashuv til madaniyati va ilmiy-etnik qadriyatlarni saqlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, begona so'zlarning tilimizga kirib kelishi va ularning omma tomonidan qo'llanilishi tabiiy lingvistik jarayon sifatida baholanishi mumkin. Biroq milliy muqobil variantlari mavjud bo'lsa ham, begona so'zlardan va slenglardan ortiqcha foydalanish leksik boylikning kamayishiga va milliy so'zlarning unutilishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, til madaniyatini saqlash va rivojlantirish maqsadida quyidagi choralar tavsiya etiladi: 1. Tilshunoslik tadqiqotlari orqali nazorat: Tilshunoslar yangi kirib kelgan so'zlarning kelib chiqishi, ma'nosi va qo'llanilish kontekstini o'rganib, ularning milliy tilga mos

muqobil variantlarini jamoatchilikka taqdim etishlari lozim. 2. Ta'lim muassasalarida targ'ibot: Maktab va oliy ta'lim muassasalarida o'quvchilarga muqobil so'zlari mavjud bo'lgan begona leksik birliklar va slenglardan foydalanish tilning aniqligi, go'zalligi va adabiy me'yorlarga zarar yetkazishi tushuntirilishi zarur. 3. Milliy tilni rivojlantiruvchi kontent: Ijtimoiy tarmoqlar va boshqa media platformalarda milliy tilni targ'ib qiluvchi videolar yaratish, sof o'zbek tilida so'zlashuvchi kontent yaratuvchilarni qo'llab-quvvatlash til madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu choralar yoshlar nutqida begona so'zlar va slenglarning ortiqcha qo'llanilishini kamaytirish hamda milliy tilimizning boyligini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Xulosa qilib aytganda, XXI asr texnologiyalar asrida yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlar juda keng tarqalishi yoshlar muloqotida sleng va xorijiy so'zlarning keng qo'llanishiga asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu esa nutq me'yorlari va til estetikasining buzilishiga, ona tilimiz o'zining ifoda qiymatini yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, bu o'zgarishni nazorat qilish va yoshlar so'zlashuvida xorijiy so'zlar va slenglarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni, ya'ni maktab va universitetlarda targ'ibot ishlarini olib borish, ijtimoiy tarmoqlarda milliy tilimizda gapirishni targ'ib qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulov R., Mo'yidinov O. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati .- Toshkent. 2015 -B.20-25.
2. Tojiyev Y., Husanova N., Tojmatov H., Yo'ldasheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari 1994. 14 b.
3. Rustamova D. Yoshlar muloqotida begona so'zlar va jargonlar: til madaniyatiga tahdid//Worldly Journals.com 2025. -№2. B.156-161.
4. Alisher Navoiy hikmatlari// ziyouz.com 2013
5. Abduazizov A., Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-Toshkent.2010 -B.132-133
6. <https://www.wikipedia.uz>
7. <https://t.me/slanguz>